Inson kapitali masalasi bo‘yicha dunyo davlatlari va mamlakatimizda ham turli olimlar shug‘ullanib kelmoqdalar. Bular jumlasiga S.A.Dyatlov, S.Fisher, R.Dornbush, G.Q.Abduraxmanova, U.N.Toshkenbayev, D.J.Rustamov, M.Quronov, Sh.O.Amirqulov, K.Shmalenzi M.Q.Pardayev, S.A.Babanazarova, Z.B.Qo‘ziyev, B.Sh.Usmonov, M.Q.Qodirov, J.D.Eltazarov, F.Joniyev, Sh.G.Akramova, H.N.Ochilova kabilarni[3] kiritish mumkin. Mualliflarning ushbu asarlarida inson kapitalining mohiyati, mazmuni, shakllanish bosqichlari, uni takomillashtirish bo‘yicha tegishli omillar qarab chiqilgan. Ammo inson inson kapitalida mujassam bo‘lgan fazilatlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va roli yetarli darajada ochib berilmagan. Shu tufayli mazkur ishning mavzusi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Zero, inson kapitalida mujassam bo‘lgan fazilatlar jamiyatning nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy muhitini o‘z ichiga oladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inson kapitalida mujassam bo‘lgan fazilatlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va roli qarab chiqish jarayonida makon va zamon, miqdor va sifat, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya kabi uslublardan va yondoshuvlardan foydalanilgan. Bunda, asosan, mantiqiy tahlil usullari va munozarali masalalardan ham foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo aholisi sonining ortib borishi bilan birga ularning tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji ham uzluksiz ortib bormoqda. Ehtiyojlarni qondirish uchun, asosan, tabiiy va undan qayta ishlangan resurslardan foydalaniladi. Hozirgi cheklangan resurslar sharoitida bu dolzarb muammo hisoblanadi. Tabiiy va qayta ishlangan resurslardan ham oqilona foydalanilmaslik bundan ham katta muammolarni keltirib chiqaradi. Tabiiy iqlimning buzilishi, atmosferaning ifloslanishi, qurg‘oqchilik shular shumlasidandir. Bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Buning oldini olish maqsadida dunyo miqyosida juda ko‘plab tadbirlar olib borilmoqda. Shulardan biri butun aholi tarkibida “Inson kapitali”ni rivojlantirishga qaratilgandir.

Inson kapitali loyihasi jamiyatda ijtimoiy adolat va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan insonlarga eng ko‘p va samaraliroq investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan tashabbusdir. Jahon banki inson kapitalini rivojlantirishni global rivojlanish strategiyasining asosi qilib belgilab qo‘yganligi ham bejiz emas. Zamonaviy iqtisodiyotda mamlakatning milliy boyligi tarkibiga kiruvchi inson kapitali yalpi ichki mahsulotni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Inson kapitali – bu shaxs tomonidan to‘plangan, u o‘z kasbiy faoliyatida foydalanadigan sog‘liq, bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar zaxirasi. Inson kapitali sifatining oshishi shunga mos ravishda mehnat unumdorligi va inson daromadining oshishiga olib keladi[4].

Inson kapitalining tarkibiga bilim, tajriba va salomatlik xususiyatlar kiradi va bu umri davomida to‘planib, rivojlanib boradi. Natijada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ham uzluksiz ta’minlab boradi. Mam-

---

1 https://www.gazeta.uz/oz/2020/08/19/individual-oriented-education/

2 O‘sha joyda.

3 Tashkenbayev U.N. O‘zbekistonda shaxs o‘z salohiyatining necha foizidan foydalana olishi hisoblab chiqildi. // FacebookTwitter-Telegram 21:53 / 18.10.2020 13199., Abduraxmanova G.Q., Rustamov D.J. “Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo‘nalishlari”.Monografiya. – Beau Bassin: “GlobeEdit” Publisher, 2020. – 127 b., Muhammadjon QURONOV, Inson kapitali maktabda yaratiladi. // http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/ 1486.htm., Usmonov B.Sh., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli (ilmiy-ommabop risola). –Samarqand: SamDU, 2015. –83 B., Joniyev F. Inson kapitali va milliy qadriyatlar. https://zamin.uz/hayot-tarzi/11291-inson-kapitali-va-milliy-adriyatlar.html., Amirqulov Sh.O. Inson kapitali: shakllanishi va rivojlanishi. Innovatsion texnologiyalar/Innovative technologies. – 2020 yil 2-son. – 87-92 betlar,. Inson kapitali: mohiyati va uni o‘rganishga yondashuvlar. Iqtisod va Moliya / Ekonomika i Finansi № 10, 2011 Jurnal. – 53-57 betlar. Pardayev M.Q., Babanazarova S.A., Ko‘ziyev Z.B., Ochilova H.N. Ta’lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, – 2020. – 260 bet... Pardayev M.Q., Ochilova H.N., Babanazarova S.A. Ta’lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishda sinergetik samara va ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish imkoniyatlari. // Tadjikiston: ekonomika i upravleniye (Ekonomicheskiye nauki) 2023. ½-son. –131-142 betlar.

4 https://www.kubsu.ru ›

lakatning jadal rivojlanib, raqobatbardoshligini ta'minlashda inson kapitali muhim rol o'ynaydi. Shu tufayli ushbu kategoriyaga katta e'tibor berilishi bejiz emas, albatta.

Qisqa vaqt ichida rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida yuqori samaradorlikka erishishda innovatsiya va yuqori texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Bularni kim yaratadi, albatta, shu darajada bilimga ega bo'lgan insonlardir. Shu tufayli barcha iqtisodiyot tarmoqlari bilimlar talab qiladigan ko'p tarmoqlarga aylanib ulgurdi. Bu esa inson kapitaliga ehtiyojni oshirmoqda. To'laqonli inson kapitalini shakllantirish uchun har bir mamlakatda ta'lim, sog'liqni saqlash, ilmiy g'oyalar, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga katta ahamiyat berishlikni talab qilmoqda. Bunday ijtimoiy xizmatlar bizda ham qo'llab quvvatlanmoqda. Ammo insonlardagi mas'uliyat hamon yetarlicha shakllangan deb bo'lmaydi. O'qiyotganlarning aksariyat qismi hozirgi kunda ham bilim olish uchun emas, diplom olish uchun o'qiyotganligi achinarli holdir. Shu tufayli har bir insonni o'zining, oilasining va mos ravishda Vatanining kelajagi ilmli odamlar bilan go'zal va xotirjam bo'lishini yoshligidan tushunib, anglab ulg'ayishi lozim. Shundagina ilmga muhabbat uyg'onsa ajab emas.

Inson kapitalini rivojlantirishning bir qancha amallari va tadbirlari mavjud. Chunki inson kapitali mukammal bo'lishi uchun birinchi galda u sog'lom bo'lishi kerak. Sog'lom bo'lib mas'uliyatsiz bo'lsa, buni o'sha toifaga kiritib bo'lmaydi. U o'z kasbi bo'yicha chuqur bilimga ega va ma'lum amaliy tajribaga ham ega bo'lishi lozim. Bu holat o'z ichiga birinchi galda o'quv jarayonini qamrab oladi. Agar uning ilmiga nisbatan yangi texnika, texnologiya va usullar joriy qilinsa, albatta malakasini oshirib, zamonga moslashib borishi lozim. Har bir xodim o'zining ish faoliyati bilan bog'liq mahoratini ham oshirib borishini ta'minlashi uchun shaxsiy rivojlanish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bunda har bir xodim o'z ustida ishlashi lozim. Bularning hammasi uchun har bir xodim ma'naviy jihatdan ham yetuk bo'lishligini taqozo qiladi.

Inson kapitali bunday keng qamrovli fazilatlar va holatlarni o'zida mujassam etsagina u takomillashgan zamon talabiga javob beradigan bo'ladi. Bunday fazilatlar va jarayonlarning o'zaro bog'liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).




1-rasm: Inson kapitalida mujassam bo'ladigan fazilatlar va holatlarning o'zaro bog'liqliklari

Rasmdan ko'rinib turibdiki, inson kapitali mukammal bo'lishi uchun bir qancha fazilatlar va holatlarni o'z ichiga olar ekan. Quyidagi ularning ba'zilariga izoh berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Birinchi galda inson yetarli darajadagi malakaga ega bo'lishi lozimdir. Buning poydevori dastavval o'quv jarayonida qo'yiladi. Inson o'zini o'quvga yo'naltirish, yangi bilim va ko'nikmalarni olish uchun harakat qilishi lozim. O'quvchilar, yuqorida ta'kidlanganidek, diplom uchun emas, balki ilm olish uchun harakat qilib o'qishliklari lozim.

Insonda ma'naviy yetuklik bo'lmas ekan ko'zlangan marrani egallab bo'lmaydi. Chunki ma'naviy yetuk bo'lmagan odamlarni nafs balosi boshqaradi. Bu esa jamoada turli nizolarni keltirib chiqarish mumkin. Bunday sharoitda, albatta, ma'naviy muhit buziladi. Ma'naviy muhit bo'lmagan joyda xotrjamlik ham, ishda samara ham bo'lmaydi. Eng muhimi bunday joylardan baraka qochadi.

Insonning salomatlik masalasi ham ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Agar inson sog'lom bo'lmas ekan, uning birorta fazilati, malakasi yuzaga chiqmaydi. Mamlakat iqtisodiyotiga ham umuman hissasi qo'shilmaydi. Shu tufayli insonlarning salomatliklariga alohida ahamiyat berishni taqozo qiladi.

Inson o'z ustida ishlashi uchun kitob o'qish, kurslarga yozilish, veb-saytlardan ma'lumotlar olish orqali o'zini rivojlantirishi lozim. Hamisha ham malaka oshirish masalasi tizimli yo'lga qo'yilmasligi mumkin. Ayniqsa hozirgi xususiylashtirilgan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlar rejali malaka oshirish bilan shug'ullanmaydilar. Bunday sohada faoliyat ko'rsatish uchun asosan o'z ustida o'zi ishlashi, o'rganishi lozim.

Inson talab darajada malakaga ega boʻlishi uchun, bugungi tez oʻzgarishlar zamonida hamisha malakasini oshirib borishga harakat qilishga majbur boʻladi. Hozirgi paytda oldingi bir qancha kasblar oʻz mohiyatini yoʻqotdi. Jumladan, har bir savdo tashkilotida alohida oziq-ovqat mahsulotlari va alohida nooziq ovqat tovarlari boʻyicha tovarshunoslar boʻlar edi. Bugungi kunda ushbu kasblar butunlay barham topdi. Ushbu kasbni egallaganlar bugungi kunda zamonga moslashmasa, ishlashi qiyin. Shu tufayli har bir kasb egasi oʻzining malakasini zamon talabidan kelib chiqib uzluksiz takomillashtirib borishi lozim ekan. Ushbu da'vatga yana bir dalil buxgalter kasbining nomi uzoq yillardan buyon oʻzgargan emas, ammo ularning qiladigan ishlari va ish qurollari ham butunlay oʻzgarib ketdi. Hozir hech kim 40-50 yil oldin qoʻllaniladigan schotdan foydalanmaydi.

Inson talab darajada malakaga ega boʻlishi uchun oʻzining kasbi va faoliyati bilan bogʻliq rivojlanishga ahamiyat berishi lozim. Bunda professional mahorati va koʻnikmalarini oshirish uchun ish bilan bogʻliq kurslarga doimiy ravishda ishtirok etib turish, yangi kasb va shunga mos ish oʻrinlari qidirish, kasbiy rivojlantirish tadbirlaridan foydalanish lozim boʻladi. Shu oʻrinda shaxsiy rivojlanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson kapitalining shakllanishida shaxsiy rivojlanish ham muvaffaqiyatlar kaliti hisoblanadi. Bunda sogʻligini asrash, sport bilan shugʻullanish, odob-axloqqa e'tibor qaratish, psixologik tinchlikni saqlash kabi shaxsiy rivojlanish sohalariga e'tibor berish ham lozim boʻladi. Har bir jarayon inson ruhiyatiga ta'sir qiladi. Shu tufayli undan faqat yaxshi xulosalar chiqarib, kayfiyatni koʻtaradigan koʻnikmani shakllantirishga oʻrganish lozim boʻladi.

Yana bir muhim jihat. Har bir kishi tegishli tadbirlar va tanlovlarni ham tanlay bilishi lozim. Ayrim kerak boʻlmaydigan faqat vaqtni oʻtkazadigan tadbirlarga umuman ishtirok etish shart emas. Agar ushbu tadbirlar ilmiy konferensiyalar, turli ilmiy proyektlar, professional ta'limni rivojlantirishga qaratilgan boʻlsa, bunday tadbirlarga ishtirok etish orqali oʻz bilim va tajribasini oshirib borish, inson kapitalining takomillashib borishida muhim ahamiyatga ega.

Inson kapitalining takomillashuvida oʻz sohasiga mos insonlar bilan bogʻlanish, ular bilan muloqot qilish, ta'limotlar va tajribalar almashish orqali yangi imkoniyatlarni ochish (networking) ham katta ahamiyatga ega. Shu tariqa tajribali kishilardan maslahat olish, ularning tajribalaridan foydalangan holda oʻzini rivojlantirish (mentorlik va konsultatsiyalar) ham inson kapitalining takomillashuvida oʻzining ijobiy ta'siriga ega boʻladi. Ushbu faoliyatlar inson kapitalining takomillashuviga yordam berishi bilan birga, har bir insonning shaxsiy qobiliyatlaring oshib borishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Faqat har bir inson oʻziga befarq boʻlmagan holda har bir hodisa va jarayonlardan tegishli manfaat olishga intiluvchan boʻlishi va ruhiyatni oʻzida shakllantirgan boʻlishi lozim. Insonda hamisha maqsadi biror bir muvaffaqiyatga erishish uchun nima qilish kerak va kimdan nimani oʻrganish kerak degan ruhiyat shakllangan boʻlishi lozim.

Ta'lim inson kapitalini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega boʻlib, shu orqali insonlar oʻz bilim va koʻnikmalarini oshirish, yangi ma'lumotlar olish, shaxsiy rivojlanish va kashfiyotlarni qilish orqali oʻzining farovonligini va mamlakat iqtisodiyotini ham rivojlantirishi mumkin. Ushbu jarayonda ham maqsadlari aniq boʻlib, ular eng dolzarb masalalarni hal qilishni birinchi oʻringa qoʻyishga harakat qilishlari lozim. Buning uchun har bir inson oʻzi uchun eng mos va samarali tadbirlarni tanlashni ham bilishi kerak. Ushbu jarayonda ta'limning oʻrni biqiyos.

Ta'limning oʻrnini quyidagi koʻrsatilgan nuqtalarda ta'kidlashingiz mumkin. Bu quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: Inson kapitalining shakllanishida ta'lim bilan bogʻliq jarayonlarning turlari va mazmuni

| № | Ta'limning turlari | Ta'lim orqali insonning nimaga erishish mumkinligi |
|---|---|---|
| 1 | Oliy ta'lim | Universitet va oliy ta'lim muassasalari oʻzining mutaxassislik sohalarida insonlarni tayyorlash va rivojlantirishda muhim oʻrin egallaydi. Biroq har bir shaxs oʻzi yoqtirgan sohada malakali boʻlish uchun oliy ta'lim olish muhim. Oʻzi yoqtirmagan soha boʻlsa, ushbu ta'limning ham samarasi boʻlmaydi. |
| 2 | Kasbiy ta'lim | Oʻz kasbiy rivojlanish uchun ta'lim olish, kurslarga qoʻshilish va malakalarni oshirish uchun mavjud boʻlgan tajribalarni yaxshilashga ishtiyoq bilan qatnashishi lozim. Bu jarayonning hujjati shu ishlar natijasi boʻyicha sertifikat olishga erishgan boʻlishi kerak. Bu hujjatning qimmati da'vogarning bilimi bilan oʻlchanadigan boʻlishligi lozim |
| 3 | Amaliy ta'lim | Ta'limning amaliyoti, insonning oʻrganish jarayonini oʻz ichiga oladi. Bu jarayonni amaliyotga aylantirish, mashgʻulotlarga qatnashish, darslarda amaliy mashgʻulotlar koʻrish, amaliy koʻnikmalar olish kabi amaliyotlarga e'tibor berish lozim. Bunda shunchaki qarab oʻrganish bilan cheklanib qolish emas, balki oʻzi bajarib oʻrganish muhimdir. |
| 4 | Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish | Yangi ta'lim texnologiyalari, onlayn kurslar, veb-darslar, ta'limning interaktiv va innovatsion texnikalaridan foydalanish orqali oʻz bilim va malakalarini oshirish ham zarur. Chunki hozirgi paytda juda koʻplab masalalar onlayn tarzda amalga oshirilmoqda. Bu bir vaqtning oʻzida ancha texnologiyalarni ham bilishni taqozo qiladi. |
| 5 | Qoʻshimcha ta'lim | Har bir kunda yangi narsalarni oʻrganish, axborotlar bazasini oshirish uchun qoʻshimcha ta'limlardan foydalanish ham foydali tadbirlardan hisoblanadi. Qoʻshimcha ta'limni oʻzingiz tashkil qilishingiz va tashkil qilingan bunday ta'limga ishtirok etib olishingiz mumkin. |

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

| | | |
|---|---|---|
| 6 | Tajribali pedagoglardan foydalanish | O‘zingizga ma’qul pedagoglar bilan faqat auditoriyada emas, duch kelgan uchrashuvlarda ham o‘zingizga tegishli savollarni suhbat tariqasida so‘rab, bilib olishingiz mumkin. Ma’naviyatli va tajribali o‘qituvchilar darsini olish, ularning tajribalaridan foydalanish, ular bilan muloqot qilish inson kapitalining rivojlanishiga katta yordam beradi. |
| 7 | O‘zini o‘zi rivojlantirish | Jarayonlar tez rivojlanib turgan bugungi kunda hayotimizga kirib kelayotgan innovatsiyalarni o‘ta aniqlik bilan anglash, o‘z kasbiy rivojlanish yo‘li va maqsadlari uchun qat’iy reja asosida o‘rganib borish har bir insonni o‘zini rivojlantirishda katta yordam beradi. |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, inson kapitalining takomillashuvi va rivojlanishida oliy ta’lim, kasbiy ta’lim, harakatlanish va amaliyot, ta’lim texnologiyalari, qo‘shimcha ta’lim, tajribali o‘qituvchilardan foydalanish tegishli o‘ringa ega ekan. Shu tufayli Inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim keng tajribaga ega bo‘lgan bir vosita sifatida faol ro‘yxatda turadigan omil bo‘lib xizmat qilishini unutmaslik lozim..

Dunyo bo‘ylab ta’lim darajasi, ko‘proq qanday ta’lim tizimlari va mamlakatlarning ta’lim sohasidagi ishtirokining natijasidir. Bu daraja o‘z ichiga olgan bir nechta ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar har bir mamlakatning ta’lim tizimining sifatini, o‘quv jarayonini va samarasini oshirishga qaratilgan investitsiyalarini o‘z ichiga oladi. Rivojlangan davlatlarda asosiy e’tibor ta’limga qaratilgan. Qaysi mamlakatda ta’lim sifatli bo‘lsa, u yerda samaradorlik ham juda yuqori. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligini ta’minlashga katta e’tibor qaratishni taqozo qiladi. Chunki juda ko‘p oliy ma’lumotli mutaxassislarda, hatto rahbarlarimizning ham ayrimlarida tarbiya yetishmaydi. Yashirishdan hojat yo‘q, ular o‘z kasbidan va lavozimidan foydalanib, birovning haqini yeyishga, mol-dunyoni noqonuniy yo‘llar bilan o‘zlashtirishga harakat qilmoqda va buning uddasidan ham chiqmoqda. Shu tufayli jahonning ko‘pgina mamlakatlarida ta’lim tarbiya emas, balki tarbiya va ta’lim tamoyilida ish ko‘radi. Chunki birinchi galda har bir malakali inson tarbiyalangan bo‘lishligini taqozo qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dunyo bo‘ylab ta’lim darajasini belgilovchi quyidagi muhim ko‘rsatkichlarga e’tiboringizni qaratamiz. Bular quyidagi rasmda o‘z aksini topgan (2-rasm).




2-rasm: Dunyo miqyosida ta’lim darajasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqliklari

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, dunyo miqyosida ta’limga nisbatan milliy qoniqishlar va muhit muhim rol o‘ynar ekan. Chunki mamlakatlar o‘rtasidagi ta’lim darajasi ko‘rsatkichlaridan biri milliy qoniqishlar va muhit hisoblanadi. Ushbu tushunchalar har bir mamlakatning o‘zining ta’lim tizimiga qoniqishi bilan birga o‘quv jarayonining mahalliy va global muhitda qanday o‘rin olganligini ham ko‘rsatadi. Demak, ta’limdan har bir davlatning fuqarolari to‘liq qoniqish hosil qilsagina muhit o‘nglanadi va intilish bo‘ladi. Bu intilish o‘z ichiga juda ko‘p jihatlarni qamrab oladi. Tarbiya va ta’lim har bir shaxsning, oilaning, hududning, davlatning kelajagini belgilashiga to‘liq ishonch hosil qiladi. Shu tufayli har qanday o‘quvchi ta’lim olishga ishonch va shijoat bilan intiladi.

Yuqoridagi holat o'quvchining natijalarida namoyon bo'ladi. O'quvchilarning maktablarda olgan bilimlari test natijalarida namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quv dasturlaridan foydalanish holati va boshqa o'quvchilar bilan solishtirish orqali ham aniqlanadi. Bularning hammasini jamlab va qiyoslab, o'quv jarayonining samaradorligini baholash mumkin bo'ladi. Ta'limning sifati ham, uning samaradorligi ham pirovard natijada o'quvchilarning bilim darajasi bilan o'lchanadi. Bu yuqorida ko'rganimizdek, o'z ichiga juda ko'p masalalarni qamrab oladi. Bunga erishishda, asosan, o'qituvchining sifatli dars berishi va tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Dunyo miqyosida ta'lim darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri o'qituvchi sifati va tajribasi bilan bog'liq. O'qituvchi kadrlarining malakasi zamonaviy talablarga javob beradigan bo'lishligi bilan birga tajribasi ham yetarli bo'lishligini taqozo qiladi. Har bir o'qituvchining o'ziga xos o'qitish metodlari bo'lishi kerak. Bu metod o'quvchilarni yodlatishga emas, tafakkur qilishga va bularni uzoq vaqt davomida xotirada saqlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, har bir o'qituvchi o'quv jarayonini boshqarishga bo'lgan yuqori darajadagi malakaga ham ega bo'lishi lozim. Bu omillar o'quvchilarining natijalari va o'qish jarayonining samaradorligi uchun juda muhimdir. Bularga erishish uchun maktabda shunday muhit yaratilgan bo'lishi buni amalga oshirishi uchun esa to'liq imkoniyatlarga ham ega bo'lishligini taqozo qiladi.

Ko'rinib turibdiki, ta'limda yuqori samaradorlikka erishishning yana bir yo'nalishi maktabdagi muhiti va imkoniyatlari yetarli bo'lish kerakligini taqozo qiladi. Har bir o'quv muassasasi (oliy, o'rta, o'rta maxsus kabilar) o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun tegishli imkoniyatlar yaratilgan bo'lishi lozim. Imkoniyatlar to'liq bo'lib, tegishli darajadagi pedagog kadrlar bilan ta'minlangan joyda ishchanlik muhiti bilan birga tegishli ma'naviy muhit ham shakllanadi. Bularga erishishda tegishli infratuzilmaning ham mavjudligi muhimdir. Bular o'quvchi va o'qituvchilar uchun qulayliklar, laboratoriya va kutubxona imkoniyatlari, ta'lim texnikasi va boshqa resurslarni o'z ichiga oladi. Albatta, bularni amalga oshirish uchun tegishli miqdorda investitsiyalar va mablag'lar bilan ta'minlangan bo'lishligi ham zarurdir.

Inson kapitalining shakllanishi va takomillashuvida investitsiyalar va mablag'lar ham muhim rol o'ynaydi. Davlat va boshqa tashkilotlar (xususiy sektor, davlat bilan sherikchilik kabilar) tomonidan ta'lim sohasiga qilingan investitsiyalar, o'quv jarayonini rivojlantirish, yaxshi o'qituvchilarni jalb qilish va o'quv resurslarini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Biroq ta'limga qo'yilgan investitsiyalar, asosan, ta'lim jarayoniga, uning sifatini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu, albatta, mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ma'lum darajada nazorat qilishni taqozo qiladi. Bu esa, har bir so'm qilingan xarajatlarni hujjatlashtirishni talab qiladi.

Shu tufayli dunyo miqyosida ta'lim darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkichlar tarkibiga hujjatlar va ko'rsatkichlar kiritilgan. Ta'lim jarayoni, uning natijadorligi, ularga sarf qilingan xarajatlarning o'quvchilar uchun qanday qulayliklar tug'dirganligi va samarali bo'lishini ko'rsatuvchi tadbirlar ham tegishli hujjatlarda va aniq ko'rsatkichlar ifodalanadi. Chunki ta'lim jarayonning hamma bosqichlarini tashqaridan nazorat qilish qiyin. Shu tufayli bunda asqatadigan, qonuniy kuchga ega bo'lgan narsa – bu hujjatlardir.

Xullas, bunday ko'rsatkichlar asosida qilingan tadqiqotlar va ta'lim tizimlarining tahlili asosida har yili "Dunyo bo'ylab ta'lim darajasi"ni belgilab chiqish ommaviy maqsadga xizmat qiladi. Bu indekslar orqali, mamlakatlar o'rtasida ta'lim sohasidagi ishtirokni solishtirish, yaxshi ta'lim standartlarini ta'minlash va dunyo bo'ylab ta'limning rivojlanishini oshirish uchun faoliyat ko'rsatish va strategiyalar ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, inson kapitali uni rivojlantirish va takomillashtirish masalasi dunyo miqyosidagi o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarni tadqiq qilish jarayonida ayrim taklif va tavsiyalar ham shakllantirildi:

*Birinchidan,* inson kapitalida mujassam bo'ladigan fazilatlar va jarayonlardan yetarli malakaga ega bo'lish, ma'naviy yetuklik, salomatlik, o'z ustida uzluksiz ishlash, malakasini oshirib borish kabi prinsiplardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish va qo'shimcha imkoniyatlarni uzluksiz oshirib borish choralarini ko'rish ham maqsadga muvofiq.

*Ikkinchidan,* inson kapitalining shakllanishi va rivojlantirishda ta'lim bilan bog'liq jarayonlarning turlari inson kapitalining takomillashuvi, oliy ta'lim, kasbiy ta'lim, harakatlanish va amaliyot, ta'lim texnologiyalari, qo'shimcha ta'lim, tajribali o'qituvchilardan foydalanishni nazorat qilish va ushbu omillardan samarali foydalanishni barcha maktablarda, oliy o'quv yurtlarida yo'lga qo'yish ham maqsadga muvofiq.

*Uchinchidan,* dunyo miqyosida qo'llanilib kelinayotgan ta'lim darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkichlar tarkibiga kiradigan milliy qoniqishlar va muhit, o'quvchi natijalari, o'qituvchi sifati va tajribasi, maktabdagi muhit va imkoniyatlari, investitsiyalar va mablag'lar, hujjatlar va ko'rsatkichlarni mamlakatimizdagi maktablarning holatiga baho berishda ham qo'llash tavsiya qilinadi.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Agar ushbu tavsiyalarimiz amaliyotga joriy qilinsa albatta inson kapitalining rivojlanishi hisobiga mamlakatimiz aholisining farovonligi, davlatning iqtisodiy o'sishi ta'minlanadi. Shu bilan birga ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan vazifalarning bajarilishi uchun tegishli imkoniyatlari yaratiladi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1. Abduraxmanova G.Q., Rustamov D.J. "Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo'nalishlari". Monografiya. – Beau Bassin: "GlobeEdit" Publisher, 2020. – 127 b.,
2. Amirqulov Sh.O.Inson kapitali: shakllanishi va rivojlanishi. Innovatsion texnologiyalar/Innovative technologies. – 2020 yil 2-son. – 87-92 betlar.
3. Babanazarova Sevara and Sharofiddinov Jakhongir (2022) "Study of Population Statistics (On The Example of Population Statistics of Uzbekistan)", Indonesian Journal of Innovation Studies, 18. doi: 10.21070/ijins.v18i.663.
4. Joniyev F. Inson kapitali va milliy qadriyatlar. https://zamin.uz/hayot-tarzi/11291-inson-kapitali-va-milliy-adriyatlar.html.,
5. Inson kapitali: mohiyati va uni o'rganishga yondashuvlar. Iqtisod va Moliya / Ekonomika i Finansi № 10, 2011 Jurnal. – 53-57 betlar.
6. Quronov Muhammadjon, Inson kapitali maktabda yaratiladi. // http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/ 1486.htm.,
8. Pardayev M.Q., Babanazarova S.A., Ko'ziyev Z.B., Ochilova H.N. Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, - 2020. – 260 bet.
9. Pardayev M.Q., Ochilova H.N., Babanazarova S.A. Ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishda sinergetik samara va ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish imkoniyatlari. // Tadjikiston: ekonomika i upravleniye (Ekonomicheskiye nauki) 2023. ½-son. – 131-142 betlar.
10. Pardayev Mamayunus, Babanazarova Sevara. Inson kapitali tushunchasi va uning mohiyati nimadan iborat? // https://telegra.ph/Inson-kapitali-tushunchasining-mazmuni-va-uni-ifodalovchi-k%D1%9Ersatkichni-ani%D2%9Blash-j%D1%9Eli-09-21.
11. Tashkenbayev U.N. O'zbekistonda shaxs o'z salohiyatining necha foizidan foydalana olishi hisoblab chiqildi. // https://kun.uz/news/2020/10/18/ ozbekistonda-shaxs-oz-salohiyatining-necha-foizidan-foydalana-olishi-hisoblab-chiqildi.
12. Usmonov B.Sh., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta'lim va ilm-fanning roli (ilmiy-ommabop risola). –Samarqand: SamDU, 2015. –83 B.
13. https://www.gazeta.uz/oz/2020/08/19/individual-oriented-education/
14. https://www.osp.ru/news/2021/0804/13039814

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan.